

ABDURAUF FITRAT ASARLARI KORPUSI MATNLARINI TO‘PLASH VA ULARGA DASTLABKI ISHLOV BERISH MUAMMOLARI

Alimbekova Mavjuda Xalimjon qizi

alimbekovamavjuda18@gmail.com

ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdurauf Fitrat asarlari korpusi matnlarini to‘plash, yig‘ilgan asarlarni tekst holiga keltirish, matnga dastlabki ishlov berish masalalari yoritilgan. Matnga dastlabki ishlov berish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklar va unga berilgan yechimlar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallifning korpusga kiritish imkoni bo‘lmagan asarlari va buning sababi keltirilgan.

Abstract. This article covers the issues of collecting the texts of Abdurauf Fitrat authorship corpus, turning the collected works into text, and initial processing of the text. The difficulties that appeared during the initial processing of the text and solutions given to it are discussed. Also, the works of the author that can not included in the corpus and the reason for this are given.

Аннотация. В данной статье освещены вопросы сбора текстов корпуса Абдурауфа Фитрата, приведения в порядок собрания сочинений в текстовую форму и предварительной обработки текста. Обсуждаются проблемы, возникшие при первичной обработке текста, и пути их решения, а также приводятся авторские произведения и причины, из за которых не удалось включить их в корпус .

Kalit so‘zlar: *mualliflik korpusi, Fitrat asarlari matni, txt, matnlarni to‘plash, matnga dastlabki ishlov berish.*

Kirish

“O‘z mohiyat e‘tiboriga ko‘ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo‘lgan jadidchilik g‘oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, ushbu harakat namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o‘ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda” [Mirziyoyev, 2023]. Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yilning 11-12-dekabr kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya qatnashchilariga aytilgan tabrik nutqida jadidlarning hayoti va jasorati yoshlarni Vatanni ko‘z qorachig‘iday asrashga da‘vat ekanini, ularning ilmiy me‘rosini o‘rganish, tadqiq qilish millat kelajagi uchun ahamiyatli ekanini ta’kidladi.

Abdurauf Fitrat ijodi adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, pedagogika, siyosat, din, falsafa, musiqa sohaları uchun bugungi kunda ham ahamiyatli. Fitratning ijodiy merosi o'zbek millati uchun qanchalik ahamiyatli bo'lsa, fors-tojik adabiyotshunos, tilshunoslari uchun ham birday qadrlidir.

Asosiy qism

Shoir Rauf Parfi Fitratning 4 ta: “Sayha”, “Uchqun”, “She’rlar va doston”, “Mening tunim” she’riy to’plami mavjud ekanini yozgan [Parfi]. “Sayha” she’riy to’plami vatanparvarlik ruhida yozilgan she’rlardan iborat ekani, o’z davrida xalq orasida katta shov-shuvlarga sabab bo’lganini Fayzulla Xo’jayev ta’kidlab o’tgan, ammo “Uchqun”, “She’rlar va doston”, “Mening tunim” nomli to’plamlari va u haqidagi ma’lumotlarni boshqa fitratshunoslar tadqiqotlarida uchratmadik. 1922-yilda Fitrat boshchiligida “O’zbek yosh shoirlari” nomli she’riy to’plam yaratilgan bo’lib, unga Fitratning she’rlari bilan birga Cho’lpon, Elbek va Botuning ba’zi she’rlari jamlangan. Ushbu to’plamga Fitratning o’n uchta she’ri kiritilgan bo’lib, ular 1919-1921-yillarda yozilgan she’rlar sanaladi va quyidagilarni o’z ichiga oladi: “Kim deyay seni?”, “Biroz kul”, “Achchig’lanma degan eding”, “Mirrix yulduziga”, “Ovunchoq”, “Ishqimning tarixi”, “Yana yondim”, “Nega bo’yla?”, “Shoir”, “Behbudiyni sag’anasini izladim”, “Parcha”, “O’gut”, “Sharq”. Fitrat 1917-yilda “Hurriyat” gazetasida “Yurt qayg’usi” nomli she’riy turkumini e’lon qilgan. Ulardan bittasi aruz vaznida yozilgan, “Yurt qayg’usi (sochma)”, “Yurt qayg’usi (bir o’zbek tilidan)”, “Yurt qayg’usi (Temur oldinda)” nomli she’rlari sochma she’r hisoblanadi. Fitrat “Adabiyot qoidalari” kitobida bunday she’rlarni “mansura” deb atagan. Shuningdek, shoirning “O’qitg’uvchilar yurtiga”, “Qor”, “Mening kecham”, “Go’zalim, bevafo gulistonim” kabi she’rlari ham mavjud. Ular to’plamga kirmagan she’rlaridir. Hamidulla Boltaboyev boshchiligida chop etilgan Fitratning besh jildlik “Tanlangan asarlar”ining I jildiga Fitratning yuqorida sanab o’tilgan 21 ta she’ri kiritilgan. Korpusga kiritish uchun ushbu she’rlar olindi.

Uning dramatik asarlaridan “Begijon”, “Qon”, “Abo Muslim”, “O’g’izxon” pyesalari eski o’zbek yozuvidan lotin alifbosiga o’girilmagan.

“Temur sag’anasi” dramasi bizgacha yetib kelmagan. Hamid Olimjon Fitrat faoliyatini tanqid qilib maqola yozgani ma’lum, shunga tayanib H. Boltaboyev H.Olimjonda ushbu asarning biror bir nusxasi bo’lishi mumkinligini yozadi. Ushbu dramadan quyidagi parcha yetib kelgan, xolos: “Men sizlarga ko’p narsalar yetkardim. Ne bo’ldi, bir zamonlar sharaflı va jasur bir millatning zulm ostida qolmish. Kimlar bog’laringdan qushlarimni quvmoqda!... Otalar merosidan nimani oldingiz! Sizdan talab etaman, qalqingiz!... O’lkani tuzatingiz, avlodlarimning hur yashamoqlarini ta’min etingiz. Agar bunday qilmasangiz, o’lka bir buyuk mozorlik holiga kelur”. Ushbu parcha “Yosh leninchi” jurnalida 1935-yilda e’lon qilingan. [Fitrat, 2000: 18]

1934-yilda yozilgan “To’lqin” opera librettosi bizga qadar yetib kelmagan. Lotin alofbosida chop etilgan “Abulfayzxon”, “Vose’ qo’zg’oloni”, “Chin sevish”,

“Arslon”, “Hind ixtilochilari”, “Shaytonning tangriga isyoni” dramalari korpus matni uchun olindi.

“Sarfi zaboni tojik”, “Cho‘zg‘ilar”, “Bitim yo‘llari”, “Amir Olimxonning hukmronlik davri”, “Turk tili”, “Sharq shahmati” asarlari va Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiylar bilan hammualliflikda chop etilgan “Ona tili” darsligi lotin alifbosida chop etilmagani bois ushbu asarlar ham Abdurauf Fitrat asarlari korpusi matni uchun olinmadi.

Fitratshunos olim H.Boltaboyev boshchiligida chop etilgan Fitratning V tomlik tanlangan asarlariga kiritilmagan “Me’roj”, “Zayd va zaynab”, “Oqmozor”, “Zahroning iymoni” nomli hikoyalari Sh.Turdiyev nashrga tayyorlagan “Hiylaiy shar’iy. Kichik hajviy asarlar” to‘plamidan olindi. Ushbu to‘plam 1973-yili “Adabiyot va san’at nashriyoti” tomonidan O‘zSSR FA akademigi, muxbir a’zosi I.Sultonov tahriri ostida nashr qilingan.

Korpus matnlari uchun yig‘ilgan asarlar va ularning janrlari quyidagi jadvalda berilgan:

T/r	Abdurauf Fitrat ijodi janrlari	Soni	Asar nomlari
1.	She’r	17	“Achchig‘lanma degan eding”, “Behbudiyning sag‘anasin izladim”, “Bir oz kul”, “Go‘zalim, bevafo gulistonim”, “Ishqimning tarixi”, “Kim deyay seni”, “Mening kecham”, “Mirrix yulduziga”, “Nega bo‘yla”, “O‘gut”, “O‘qitg‘uvchilar yurtiga”, “Ovunchoq”, “Parcha”, “Qor”, “Sharq”, “Shoir”, “Yana yondim”
2.	G‘azal	1	“Yurt qayg‘usi”
3.	Mansura	3	“Yurt qayg‘usi (bir o‘zbek tilidan)”, “Yurt qayg‘usi (Sochma)”, “Yurt qayg‘usi” (Temur oldinda)
4.	Qissa	1	“Hind sayyohi bayonoti”
5.	Hikoya	5	“Qiyomat”, “Me’roj”, “Zayd va Zaynab”, “Oq mozor”, “Zahroning iymoni”
6.	Drama	6	“Abulfayzxon”, “Arslon”, “Shaytonning tangriga isyoni”, “Hind ixtilochilari”, “Chin sevish”, “Vose’ qo‘zg‘oloni”
7.	Ocherk	1	“Bedil”



8.	Maktub	2	“Buxoro vaziri Nasrullohbey parvonachi afandi hazratlarina ochiq maktub”, “Yopishmagan gajaklar”
9.	Maqola	11	“Angliz va Turkiston”, “Buxoro ulamosi”, “Buxoroda inqilob”, “Buxoroning holi”, “Johilona taassubg‘a misol”, “Musulmonlar, g‘ofil qolmang!”, “Muxtoriyat”, “Sharq siyosati”, “Sho‘royi Islomiyanning xatosi”, “Siyosiy hollar”, “Turkistonda ruslar”.
	Ilmiy	18	“Ahmad Yassaviy”, “Chig‘atoy adabiyoti”, “Farhod va Shirin dostoni to‘g‘risida”, “Fors shoiri Umar Hayyom”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Mashrab”, “Muhammad Solih”, “Muqaddimat ul-adab”, “Navoiyning forsiy shoirlik‘i ham uning forsiy devoni xususida”, “O‘zbek shoiri Turdi”, “Qutadg‘u bilig”, “She‘r va shoirliq (Adabiy mubohasa)”, “Tilimiz I”, “Tilimiz II”, “Tilimizning abadiyligi”, “XVI asrdan so‘ngra o‘zbek adabiyotig‘a umumiy bir qarash”, “Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘rusida”
10.	Munozara	1	“Hindistonda bir farangi ila Buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilg‘an munozarasi”
11.	Qo‘llanma	3	“O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba. Birinchi kitob: Sarf”, “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba. Ikkinchi kitob: Nahv”, “Adabiyot qoidalari”.
12.	Darslik	1	“O‘quv”
13.	Majmua	1	“Eng eski turk adabiyoti namunalari”
14.	Risola	4	“Aruz haqida”, “Rahbari najot (“Najot yo‘li”)", “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari”, “Muxtasar islom tarixi”

Korpus matnlariga dastlabki ishlov berish muammolari. Pdf formatidagi matnlarni txt formatiga o‘tkazish jarayonida qadimgi turkiy til tadqiqiga bag‘ishlangan asari “Eng eski turk adabiyoti namunalari” asarida arab alifbosida

berilgan ifodalar mavjud. Bunda muallif “Devoni lug‘at”dagi harf va cho‘zgilarning eski o‘zbek alifbosida qanday fodalanishini keltirib o‘tgan. “Sublime text” dasturida matnni “text” formatiga keltirayotganimizda ushbu o‘rinda qiyinchiliklar yuzaga keldi. Bunday arabiy ifodalar, harf va cho‘zg‘ilarning o‘zbek tilidagi nomini yozish bilan cheklanishni ma’qul topdik.

“Adabiyot qoidalar” asarida tarix, muammo janrlari tavsifida arab harflari, “Abjad hisobi” yozilgan o‘rinlar mavjud:

Dedi ta’rixini duo birla,

Komil xoksor besomon.

Avj izzat uza muqim o‘lsun

“نور عين سيد محمد خان”

(Nuri ayni Said Muhammadxon)

Ushbu ta’rixda “نور عين سيد محمد خان” misrasi ta’rix janrining asosi hisoblanadi. Ushbu imlo bilan yozilganda to‘rtinchi misraning soni abjad hisobiga ko‘ra 1203 bo‘ladi. Korpusda bunay o‘rinlarda kelgan arab alifbosida yozilgan jumla ahamiyatli bo‘lgani bois txt formatida ham aynan shunday holatda kiritishni o‘rinli deb hisobladik. Qidiruv tizimida ushbu ta’rix yaxlit holda chiqishi uchun quyidagi tartibda bir satrga keltirildi:

[*Dedi ta’rixini duo birla,*][*Komil xoksor besomon.*][*Avj izzat uza muqim o‘lsun*][*نور عين سيد محمد خان*][(Nuri ayni Said Muhammadxon)]

Shuningdek, “Aruz haqida” risolasida aruz qoidalariga doir chizma, taqte’lar, jadval ko‘rinishida — ustun shaklda berilgan ma’lumotlar ham ko‘p uchraydi. Misol sifatida quyidagi parchani keltirishimiz mumkin:

Qo‘lg‘a olib dombiram, chertar uni tirnog‘im,

Bordi-keldi maqomim kelishtirg‘an barmog‘im.

Tilim zikrin so‘ylayib, ko‘nglim fikrin o‘ylayib,

So‘ylaganda ko‘runar ko‘rguligi (ko‘rgulik?) oq tomog‘im.

-V|V-|V-|--|VV|-V|-

-V|-V|VV|-|V-|--|V|-

V|--|V|-|--|--|V|-

-V|-V|VV|-|V|--|VV|-

Asardagi tahlil qilinib, taqte’si chizilgan bunday she’riy parchalarning har bir misrasini chizmalari bilan birgalikda ifodalash uchun bir satrga yaxlit holda quyidagicha kiritishni lozim topdik:

[*Qo‘lg‘a olib dombiram, chertar uni tirnog‘im,*][*-V|V-|V-|--|VV|-V|-*][*Bordi-keldi maqomim kelishtirg‘an barmog‘im.*][*-V|-V|VV|-|V-|--|V|-*][*Tilim zikrin so‘ylayib, ko‘nglim fikrin o‘ylayib,*][*V|--|V|-|--|--|V|-*][*So‘ylaganda ko‘runar ko‘rguligi (ko‘rgulik?) oq tomog‘im.*][*-V|-V|VV|-|V|--|VV|-*]

Xulosa

Abdurauf Fitrat mualliflik korpusini yaratish uchun lotin va kiril alifbolarida nashr etilgan barcha asarlari “txt” holatiga keltirildi. Yuqorida sanab o‘tilgan - eski

o'zbek yozuvidan lotin alifbosiga yoki kirill alifbosiga tabdil qilinmagan, qayta nashr etilmagan yoki qo'lyozma holida saqlanib kelinayotgan asarlari kiritilmadi. Jadid namoyondalari asarlarini o'rganish, tadqiq etishga e'tibor kun sayin ortib bormoqda. O'rganilishni, tadqiq etilishini kutayotgan yozma yodgorliklar talaygina. Ushbu soha egalari tomonidan Fitratning bu turdagi asarlari lotin, kiril alifbolariga tabdil qilinib, nashr etilsa, korpus matnlarini yanada kengaytirishimizga imkon yaratilgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar. I jild. – T.: Ma'naviyat, 2000. – 256 b. – B. 18.
2. Mirziyoyev Sh. “Jadidlar g'oyasi —Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohang”. — URL: <https://daryo.uz/2023/12/11/prezidentning-jadidlar-milliy-ozlik-istiqlol-va-davlatchilik-goyalari-mavzusidagi-xalqaro-konferensiya-ishtirokchilariga-tabrigi-elon-qilindi>
3. Parfi R. Fitrat she'riyati. — URL: <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/rauf-parfi-fitrat-va-cholpon-sheriyati-haqida.html>